TINISH BELGILARISIZ SHE’RIYAT

Nazarova Nilufarxon Axmedovna
mustaqil izlanuvchi

POETRY WITHOUT PONENTS

Nazarova Nilufarkhon Akhmedovna
independent researcher

ПОЭЗИЯ БЕЗ ПУНКТУР

Назарову Нилуфархон Ахмедовну
самостоятельный исследователь
nazarovanilufaroy@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy she’riyatda tinish belgilarining nofaolligi. Badiiy matn talablaridan, grammatik me’yorlardan og‘ish holatlari qisman tahlil qilingan. Faxriyor, Ulug‘bek Hamdam she’riy asarlaridan namunalar tahlili etilgan. Vizual she’riyat namunalari tinish belgilarisiz she’riyat targ‘iboti sifatida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy vosita, punktuatsion me’yor, vizual she’riyat, ta’sirchanlik, muallif maqsadi, poetik shakl.

Abstract. In this article, the inactivity of punctuation marks in modern poetry. Cases of deviation from the requirements of the literary text and grammatical norms are partially analyzed. Samples from the poetic works of Fakhriyor and Ulugbek Hamdam were analyzed. Samples of visual poetry are presented as a promotion of poetry without punctuation marks.

Keywords: artistic means, punctuation norms, visual poetry, expressiveness, author's goal, poetic form

Аннотация. В данной статье рассматривается бездействие знаков препинания в современной поэзии. Частично проанализированы случаи

отклонения от требований художественного текста, грамматических норм. Проанализированы образцы поэтических произведений Фахрияра, Улугбека Хамдама. Образцы визуальной поэзии представлены как пропаганда поэзии без знаков препинания.

Ключевые слова: художественное средство, пунктуационная норма, визуальная поэзия, выразительность, авторская цель, поэтическая форма.

Kirish

Bugungi o‘zgarish va yangilanishlar hech bir sohani chetlab o‘tmaganidek, adabiy tur va janrlar ham o‘zgarish va yangilanishga duch kelmoqda. Ayniqsa, bu nasr va nazmda yaqqol aks etmoqda. O‘zbek she’riyati ham shakliy, ham mazmuniy yangilanishlar bosqichidan o‘tmoqda. Misol uchun, nasrda mavhumlik, voqealar rivoji va yechimda o‘zgarishlar sezilsa, nazmda esa qisqalik, oq she‘r shakl va vazni, tinish belgilarisizlik urf bo‘lmoqda. She’riy matnlarda punktuatsion belgilardan to‘liq voz kechilmaganda esa ularning funksiyalari pasayishi kuzatilmoqda. Bu esa faqat grammatik, imloviy, savodxonlik talabi bilangina bog‘liq emas. Bu ijodkorning muayyan estetik maqsadini ifodalaydi.

Metod va usullar

Aslini olganda, tinish belgilarining asosiy vazifasi yozuvda ifodalanadigan nutqning fikriy tugalligi, bo‘linishi, gapning qanday qismlarga ajratilishi hamda gap bo‘laklarining o‘zaro munosabatlarini belgilash va ifoda etishdan iboratdir. Faqat bugina emas, tinish belgilari so‘zlardagi qo‘shimcha ma‘no bo‘yoqlarini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Bunda ular nutqning biror bo‘lagi yoki gap qanday mazmun anglatganini ifodalash uchun ishlatiladi. Shunday holatlar bo‘ladiki, tinish belgilari o‘rnining o‘zgarishi yoki o‘z o‘rnida ishlatilmasligi gap mazmunini butunlay o‘zgartiradi. [1;6-bet]

Кучсиз, титроқ, оппоқ, кичик томчилар,

Турмай, тинмай тупроқ уза ёғадир.

Ел бизларни, билмам, нечун қамчилар?! [3; 23-b]

A.Fitratning “” she’ridan olingan ushbu misralarda vergullarning (,), so‘roq (?) va undov (!) belgilarining aynan shu nashrdagi qo‘llanilishi hamda ularni o‘rnini o‘zgartirib qo‘llash misradagi fikr va ohangga ta’sir qilishiga misol bo‘la oladi.

Zamonaviy rus punktuatsiyasi bilan shug‘ullangan N.S.Valginaning shunday gapi bor: “Tinish belgilarini o‘rganish mumkin emas, balki ularni qo'llashni o‘rganish kerak”. Olima bu fikri zamirida tinish belgilarini keng vazifalarga, imkoniyatlarga egaligini ham nazarda tutgan bo‘lsa, ajab emas. Chunki tinish belgilari dastlab faqat grafik belgi vazifasini o‘tagan bo‘lsa, hozir ularning vazifalari bir qadar kengaygan. Olima fikrida davom etib yozadi: “Zamonaviy tinish belgilari o‘zida ulkan imkoniyatlarni mujassam etadi, ular yozuvchiga nafaqat fikrlarini, balki his-tuyg‘ularini ham etkazishda yordam beradi”. [1;6-bet]

Natija va muhokamalar

Demak, shu kabi fikrlardan xulosa olsak, tinish belgilarining o‘rni yozma nutqda beqiyos. Lekin ayni damda she’riyat tinish belgilari ishatilishi badiiy talab deyish bilan bir qatorda ulardan voz kechishni ham targ‘ib etayotgan oqimga ham ajramoqda. Ayniqsa, Faxriyor, Ulug‘bek Hamdam, Anvar Obidjon kabi ijodkorlar ijodida punktuatsiyadan uzoqlashish holatlarini uchratamiz. Bu esa she’riy matn talablari, me’yorlardan og‘ish hamda poetikadagi erkinlikka olib keladi.

An’anaviy she’riyatda punktuatsion belgilar o‘quvchiga “yo‘l ko‘rsatkich” vazifasini bajarsa, zamonaviy she’riyatda esa bu belgilaridan foydalanmaslikning o‘zi ham badiiy funksiya bajaradi. Misol uchun, Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam singari ijodkorlar tinish belgilarini she’r matnlarida olib tashlashlik bilan o‘quvchiga matnni erkin talqin qilish imkonini beradi.

Ayniqsa Faxriyor she’riyatida tinish belgilari o‘rni va faolligi o‘zgacha. Shoir ko‘pincha oq bo‘shliqlar (probel) va misralarning noodatiy tartiblaydi. Masalan, uning

punktuatsiyasiz she’rlarida bir mantiqiy tugallik ikkinchisiga ulanib ketadi, bu esa o‘quvchini to‘xtovsiz fikrlashga majbur qiladi.

Сунбула

1

Хазон нафаси келар ҳаводан
Севиб бўлган юракдай
совий бошлар
тина бошлар сув
дарёларнинг мавжлари тинар
кузга кириб борар дарахтлар қатор
жума намозига келган
масжид олдидаги жамоатдайин
ҳаммасининг эгнида
барглардан қуралган
мингямоқ чопон [4; 47-b]

Asli ushbu she’rdan olingan parcha nuqta, vergul, tirelar bilan birga berilishi grammatik talab, lekin shoir har misra boshidagi bosh harflardan ham, tinish belgilaridan ham to‘liq voz kechgan. Intonatsiya va to‘xtamni o‘quvchi ixtiyoriga qo‘ygan. Misralanish tartibi ham an’anaviy emas, modern she’riyat namunasi. 1-misra alohida darak mazmunidagi gap ekanligi sezilyapti aniq. Lekin 2,3,4- misralar yaxlit ma’no berishini anglash uchun misralarni ikki qayta o‘qish yoki mazmunini anglab, e’tibor bilan o‘qish kerak. Ya’ni misralanish va tinish belgilarisizlik she’r mazmunini anglashgda murakkablik tug‘diryapti. Ushbu misralardagi bog‘lovchisisz qo‘shma gaplarni anglash qiyin bo‘lmoqda. Ular bir paytda yuz berayotgan voqealarni ifodalagani uchun o‘zaro vergul bilan ajratilishi o‘quvchi uchun ancha qulay va tushunishni osonlashtirardi.

Keyingi misralardagi bo‘laklarning ham ma’nosini izohlab, aniqlashtirib kelyotganligi bois, sabab-natija yoki izohlash munosabatli bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar mazmuni anglashilayotgani uchun tire yoki vergul qo‘yilishi mumkin edi. Demak, she’riy parcha punktuatsion talablarga mos bo‘lganda she’r mazmunini anglash anchayin oson bo‘lardi.

Masalani ikkinchi tomoni bo‘lganidek, bu vaziyat yangi struktura xohlayotgan, bir xillikdan zerikkan kitobxon uchun zarur. Biz tinish belgilarisizlikni qoralashdan yiroqmiz, sababi hozirgi yangilanish adabiy turlarni ham chetlab o‘tmasligi tabiiy. She’rni har kim, har kitobxon o‘z saviyasi, yoshi, kayfiyat va ruhiy vaziyatidan kelib chiqib tushunish uchun aslida tinishlarsizlik qulay.

Xulosa

Yuqoridagi kabi misol va izohlar hozirgi davr she’riyatida juda ko‘p uchraydi. Lekin ularning har birini izohlash imkonsiz. Shu sabab xulosa va tahlillarimiz umumiy va qisqa. Demak, zamonaviy ijodkorlar she’rlarida tinish belgilarining yo‘qligi inson ruhiyatidagi uzluksiz oqimni ifodalaydi. Nuqta yoki vergulning yo‘qligi hissiyotning bo‘linmasligini, dardning bir nafasda aytilishini ta’minlaydi.

Yana, vizual she’riyat — yangicha targ‘ibot bo‘la oladi. Vizual she’riyatda matnning o‘zi rasm yoki shaklga aylanadi. Bu erda tinish belgilari ortiqcha yuk hisoblanadi, chunki matnning geometrik shakli pauzalar va urg‘ularni o‘zi belgilab beradi. Bu uslub she’riyatni nafaqat eshitiladigan, balki ko‘riladigan san’at turiga aylantiradi, deb bekorga aytlmagan.

Ushbu fikrlarga qo‘shimcha qilsak, tinish belgilarisiz she’riyat — bu o‘quvchi va muallif o‘rtasidagi masofani qisqartirish usulidir. Grammatik qoliplarni buzish orqali shoirlar fikrning ko‘p qirraliligiga erishadilar, bu belgilaridan ozzodlik esa fikr erkinligiga asos. Istalgancha tushunish imkoni. Bu jarayon o‘zbek she’riyatining jahon adabiy maydonidagi modernistik talablarga mos bo‘layotganidan darak. Ma’noviy ko‘lamning o‘zgarishida bu belgilarning ham o‘rnini chamalashga ham turtki bu holat.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tinish belgisi qo‘yilmagan matnda bir so‘z ham oldingi, ham keyingi jumlaga tegishli bo‘lib qolishi mumkin. Bu yashirinlik. Ya’ni, o‘quvchi tinish belgisini qayerga qo‘yishiga qarab, she’rning mazmuni o‘zgarib boradi. Bu esa o‘quvchini she’rni yangicha tasavvur bilan o‘qish va xususiy ma’no berish darajasini ko‘taradi.

Biblografik ro‘yxat

1. O‘zbek tili me’yorlari (punktuatsiya). Tuzuvchilar: Nizomiddin Mahmudov, filologiya fanlari doktori, professor va boshqalar. - Toshkent: Zamin nashr, 2021.
2. Abdurahmonov, D. Xo‘jayeva HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI- Toshkent: O‘qituvchi, 2003
3. Абдурауф Фитрат ШЕЪРЛАР “Маънавият” нашриёти Тошкент
4. Шарқ юлдузи Адабий-бадиий, илмий, ижтимоий-сиёсий журнал 2023/8-сон 47-48-бетлар
5. Nazarova Nilufarxon Axmedovna. ALISHER NAVOIY ASARLARINING PUNKTUATSION BADIIY TAHLILI. O‘ZBEKISTON OLIMLARINING ILMIY-AMALIY TADQIQOTLARI ilmiy-nazariy, metodik jurnali 1 (13), 2025
6. ZAMONAVIY SHE’RIYATDA TINISH BELGILARINING NOFAOLLIGI Nazarova Nilufarxon Axmedovna "Экономика и социум" №7(134) 2025